



EGRA BAHOLASH DASTURI VA RAQAMLI O'QISH PLATFORMALARINING INTEGRATSIYASI

Arabboyeva Xonzodabegim Jasurbek qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
Namangan filiali 1-bosqich magistranti
xonzodaarabboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada EGRA baholash dasturining zamonaviy raqamli o'qish platformalari bilan integratsiyalashuvi, ushbu jarayonning boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirishdagi o'rni va amaliy samaradorligi tahlil etiladi. EGRAning diagnostik imkoniyatlari raqamli ta'lim texnologiyalari orqali kengaytirilishi, baholash jarayonining tezkorligi, obyektivligi va moslashuvchanligini oshirishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida EGRA-raqamli o'qish platformalari integratsiyasining joriy etilishi bo'yicha zarur metodik, texnik va tashkiliy omillar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: EGRA, raqamli o'qish platformalari, savodxonlik, diagnostika, ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich sinf, integratsiya.

INTEGRATION OF EGRA ASSESSMENT PROGRAM AND DIGITAL LEARNING PLATFORMS

Annotation: This article examines the integration of the EGRA assessment system with modern digital reading platforms, emphasizing their combined potential in enhancing early-grade literacy development. The study outlines how the diagnostic strengths of EGRA can be expanded through interactive and adaptive digital tools, enabling more effective monitoring of reading progress. The paper also discusses methodological and organizational requirements for implementing EGRA-digital platform integration within Uzbekistan's educational context.

Key words: EGRA, digital reading platforms, literacy, assessment, educational technologies, early grade learning, integration.





ИНТЕГРАЦИЯ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ EGRA И ПЛАТФОРМ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируется интеграция системы оценки EGRA с современными цифровыми платформами чтения, а также её влияние на повышение уровня грамотности учащихся младших классов. Показано, как цифровые технологии расширяют диагностические возможности EGRA, обеспечивая более точный и оперативный мониторинг навыков чтения. Кроме того, рассматриваются методические и организационные условия внедрения интеграции EGRA и цифровых платформ в образовательную систему Узбекистана.

Ключевые слова: EGRA, цифровые платформы чтения, грамотность, диагностика, образовательные технологии, начальная школа, интеграция.

KIRISH

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda o'qish savodxonligini erta aniqlash va muntazam monitoring qilish asosiy talab sifatida qaralmoqda. O'qish jarayonining asosiy bosqichlari - fonematik anglash, grafema-fonema mosligi, ravon o'qish va matn mazmunini tushunish - o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyat qozonishining poydevoridir. Shu sababli, bu ko'nikmalarni aniq baholay oladigan ilmiy asoslangan vositalar ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. EGRA (Early Grade Reading Assessment) ana shunday vositalardan biri bo'lib, xalqaro amaliyotda o'qish savodxonligini tezkor, aniq va samarali baholash modeli sifatida tan olingan [2].

So'nggi yillarda ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi natijasida mobil o'qish ilovalari, elektron darsliklar, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar hamda interaktiv trening tizimlari keng ommalashdi. Bu esa an'anaviy baholash usullarini yanada takomillashtirish imkonini yaratdi. Raqamli o'qish platformalari o'quvchining o'qish tezligi, tushunish darajasi va lug'at boyligidagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida aniqlay oladi. Ular shuningdek, o'quvchining individual ehtiyojiga mos topshiriqlarni avtomatik shakllantiradi va o'qituvchiga obyektiv tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli o'qish muhiti o'quvchilarning o'qish ravonligi va motivatsiyasini oshirishda yuqori samaradorlikka ega [3]. EGRA





metodikasi bilan integratsiya qilinganda esa, o'qish natijalarining diagnostik aniqligi sezilarli darajada oshadi. EGRA diagnostikasining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligi o'qituvchiga nafaqat real baholash ko'rsatkichlarini, balki o'quvchi nima sababli matnni tushunmayotgani yoki qaysi bosqichda qiynalayotganini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli platformalar jadal joriy etilayotgan bir davrda, EGRA va raqamli o'qish texnologiyalarining integratsiyasi ta'limni modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bu integratsiya boshlang'ich sinflarda o'qishni rivojlantirish strategiyalarini chuqurlashtirish, baholash sifatini oshirish va o'quvchilar savodxonligini individual yondashuv asosida shakllantirish imkonini beradi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilar savodxonligini aniq, tezkor va tizimli baholash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishni yangicha yondashuv asosida tashkil etish imkonini bermoqda. EGRA dasturi xalqaro miqyosda ishonchli diagnostik vosita sifatida tan olingan bo'lsa-da, raqamli o'qish platformalari bilan integratsiya qilinishi uning funksional imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi. Bu integratsiya o'quvchilarning o'qish jarayonini bosqichma-bosqich monitoring qilish, o'qituvchilarga real vaqt rejimida ma'lumot yetkazish va data-analitika asosida ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonda oxirgi yillarda EGRA va EGMA baholashlari o'tkazilishi, ta'limdagi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Hududlar kesimida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasidagi tafovutlar integratsiyalashgan raqamli baholash tizimining joriy etilishini dolzarb qiladi. Raqamli o'qish platformalari bilan uyg'unlashgan EGRA tizimi O'zbekiston ta'lim tizimida savodxonlikni oshirish va baholashni optimallashtirishning strategik vositasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Ne'matova (2025) o'z tadqiqotida xalqaro baholash tajribalariga tayangan holda ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llarini yoritadi. Muallifning fikricha, EGRA boshlang'ich sinflarda o'qish ko'nikmalarini bosqichma-





bosqich rivojlantirishda asosiy diagnostik vosita sifatida ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi [1]. Dubeck va Gove (2015) EGRAning nazariy asoslari, uning subtaszklar tuzilishi hamda baholash jarayonining psixometrik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Ular EGRAni nafaqat baholash vositasi, balki ta'lim siyosatini shakllantirishga xizmat qiluvchi analitik mexanizm deb baholaydi [2]. Daeli va Dewi (2024) olib borgan eksperimental tadqiqotlar raqamli o'qish platformalari bilan integratsiyalashgan EGRA metodikasining o'qish ravonligini oshirishda sezilarli natija berishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, adaptiv topshiriqlar o'quvchilarning individual qiyinchiliklariga mos ravishda shakllanib, o'qish jarayonini samaraliroq qiladi [3].

Piper va Korda (2011) EGRA asosidagi "EGRA Plus" dasturini tahlil qilib, baholash natijalari asosida o'qituvchilarning dars jarayonini moslashtirish ko'nikmalari shakllanishini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, EGRA natijalarini muntazam tahlil qilish o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini barqaror oshiradi [4]. Ralaingita va Wetterberg (2011) EGRAning ta'lim dasturlari samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib, EGRA natijalariga asoslangan intervensiyalar qisqa muddatda sezilarli o'sish keltirishini tasdiqlaydi [5]. West va Kersop (2025) o'qituvchilarning EGRAni qo'llash bo'yicha qarashlarini o'rgangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EGRA raqamli platformalar bilan integratsiyalashganda o'qituvchilar uchun yanada aniq, tushunarli va amaliy tahliliy ma'lumotlar shakllanadi [6].

ASOSIY QISM

EGRA baholash dasturi o'qish savodxonligining boshlang'ich bosqichlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan model bo'lib, uning markazida o'quvchining fonematik anglash, harf-tovush mosligi, ravon o'qish va matnni tushunish kabi ko'nikmalarini qisqa vaqt ichida obyektiv o'lchash yotadi [2]. Ushbu subtaszklar o'qish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanish mantig'iga asoslanib ishlab chiqilgan. EGRAning har bir komponenti o'quvchi o'qish jarayonida qaysi bosqichda qiynalayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, fonematik anglash past bo'lsa, o'quvchi grafemalarni tovushlarga bog'lashda qiynaladi; ravon o'qish past bo'lsa, matn tushunish darajasi ham pasayadi. Shu sababli EGRA diagnostik vosita sifatida o'qituvchilarga juda boy tahliliy material beradi.





EGRAning muhim afzalligi - uning moslashuvchanligi. Turli til va madaniy kontekstlarga moslashtirilishi oson bo'lganligi uchun 100 dan ortiq tillarda qo'llanilgan. Har bir mamlakat uchun maxsus so'zlar korpusi ishlab chiqilib, subtaszklar mahalliy tilning fonologik va morfologik xususiyatlariga mos ravishda shakllantiriladi [2]. Bu esa EGRA natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi. Raqamli platformalar, xususan mobil ilovalar, elektron darsliklar, sun'iy intellekt asosida ishlovchi adaptiv o'qish dasturlari bugungi zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Ular o'quvchining o'qish jarayonini real vaqt rejimida kuzatadi, o'qish tezligi, pauza qilish chastotasi, xatolar soni, matnni tushunish darajasi kabi ko'rsatkichlarni avtomatik qayd etadi. Raqamli texnologiyalar o'qituvchiga har bir o'quvchining individual o'sish dinamikasini aniqlash imkonini berib, diferensial yondashuvni kuchaytiradi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, interaktiv raqamli o'qish muhitida ta'lim olgan bolalar o'qish ravonligi va matnni tushunish bo'yicha an'anaviy usulda o'qiyotgan o'quvchilarga nisbatan yuqori natijalar ko'rsatgan [3]. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv sistemalar esa o'quvchi xatolariga qarab avtomatik ravishda yangi mashqlar shakllantiradi, yaxshilab olgandan so'ng keyingi bosqichga o'tishga imkon beradi. Bu jarayon o'qish ko'nikmasining tabiiy shakllanishiga mos keladi. EGRA an'anaviy diagnostika vositasi sifatida juda samarali bo'lsa-da, raqamli platformalar bilan integratsiya uning imkoniyatlarini bir necha baravar oshiradi. Integratsiya quyidagi ustunliklarni beradi: O'qish tezligi, xatolar, so'z boyligi kabi ko'rsatkichlar avtomatik qayd etiladi. Manual baholashda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan subyektivlik yo'qoladi. EGRA subtaszklarining har biri raqamli formatda o'tkazilishi va natijalarning avtomatik tahlil qilinishi imkonini beradi. Bu o'qituvchining vaqtini tejaydi va baholash sifatini oshiradi. O'quvchi aynan qaysi bosqichda qiynalayotgani aniqlanadi va unga mos interaktiv mashqlar avtomatik taqdim etiladi. Masalan, fonematik anglash past bolaga tovush-ajratish mashqlari ko'proq beriladi. Platformalar o'qish ko'nikmasi o'sish grafigini, qiyinchilik nuqtalarini, darsliklar bo'yicha qaysi matnlar murakkab bo'lganini aniq ko'rsatadi. Bu ta'lim jarayoniga shaffoflik olib kiradi. EGRA-raqamli integratsiya maktab darajasidagi, tuman darajasidagi va milliy darajadagi ta'lim sifatini tahlil qilish imkonini beradi.





O'zbekiston oxirgi yillarda EGRA va EGMA tadqiqotlarini milliy miqyosda o'tkazishni yo'lga qo'ydi. 2021-yilda 11 mingdan ortiq o'quvchi o'qish va matematika bo'yicha baholashdan o'tkazildi [7]. Natijalar o'quvchilar o'qish savodxonligida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa tizimli diagnostikaning doimiy bo'lishi kerakligini tasdiqlaydi. Raqamli platformalar joriy etilayotgan bo'lsa-da, EGRA bilan to'liq integratsiya hali amalga oshmagan. Bu integratsiya quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'qish ko'nikmalarining real vaqt monitoringi;
- hududlar kesimida savodxonlik xaritasini yaratish;
- o'qituvchilar uchun boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda analitik baza yaratish;
- ta'limdagi tengsizliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga doir strategiyalarni ishlab chiqish.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, EGRA natijalariga asoslangan intervensiya qisqa muddatda sezilarli samaradorlik beradi[5]. Agar bu jarayon raqamli platformalar orqali qo'llab-quvvatlansa, samaradorlik yanada ortadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot EGRA baholash dasturi va zamonaviy raqamli o'qish platformalarining integratsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. EGRA dasturining fonematik anglash, harf-tovush mosligi, ravon o'qish va matnni tushunish kabi asosiy komponentlari raqamli platformalar bilan uyg'unlashganda baholash jarayonining aniqligi, tezkorligi va obyektivligi sezilarli darajada oshishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar EGRA diagnostikasining imkoniyatlarini kengaytirib, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalaridagi muammolarni erta aniqlash, rivojlanish dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish va individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday integratsiya o'qituvchilarga faqatgina baholash natijalarini emas, balki o'quvchilarning qaysi bosqichda va nima sababdan qiyinchilikka duch kelayotganini chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida EGRA va EGMA baholashlarining joriy etilishi savodxonlik darajasidagi hududiy tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf





etish bo'yicha muhim ma'lumotlar bazasini shakllantirdi. EGRA baholash tizimining raqamli o'qish platformalari bilan integratsiyasi ushbu jarayonni yanada tizimli va uzluksiz tashkil etish, ta'lim sifatini monitoring qilish hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi. Natijada, mazkur integratsiya O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshlang'ich ta'limda savodxonlik darajasini oshirish va xalqaro baholash standartlariga moslashishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari va tahlillarga tayangan holda quyidagi amaliy va metodik takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Boshlang'ich ta'lim tizimida EGRA baholash dasturini milliy raqamli o'qish platformalari bilan uzviy bog'lagan holda joriy etish, baholash va o'qitish jarayonini yagona raqamli ekotizim asosida tashkil etish zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun EGRA natijalarini tahlil qilish, raqamli platformalardan samarali foydalanish va individual o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Raqamli o'qish platformalarida EGRA subtaszkilariga moslashtirilgan adaptiv mashqlarni joriy etish, o'quvchining xatolari va rivojlanish sur'atiga qarab avtomatik tavsiyalar beruvchi sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

EGRA-raqamli integratsiya asosida maktab, tuman va respublika darajasida savodxonlik ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi yagona elektron monitoring tizimini yaratish, bu orqali ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish imkonini kengaytirish lozim.

EGRA va raqamli o'qish platformalari integratsiyasining uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga qaratilgan empirik va eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning natijalarini milliy ta'lim siyosatini takomillashtirishda qo'llash tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini oshirish, ta'limdagi tengsizliklarni kamaytirish va O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro ilg'or tajribalar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ne'matova, D. (2025). Developing students' conscious reading skills based on international experiences (Using the example of EGRA studies). *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(4), 69-73.
2. Dubeck, M. M., & Gove, A. (2015). The early grade reading assessment (EGRA): Its theoretical foundation, purpose, and limitations. *International Journal of Educational Development*, 40, 315-322.
<https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2014.11.004>
3. Daeli, G. A., & Dewi, F. I. R. (2024). The effectiveness of early grade reading assessment (EGRA) method on elementary students' reading fluency. *Indonesian Journal of Social Research (IJSR)*, 6(1), 68-76.
<https://doi.org/10.51574/ijsr.2024.v6.i1.398>
4. Piper, B., & Korda, M. (2011). EGRA Plus: Liberia. Program evaluation report. RTI International. https://pdf.usaid.gov/pdf_docs/pnady444.pdf
5. Ralaingita, W., & Wetterberg, A. (2011). Gauging program effectiveness with EGRA: Impact evaluations in South Africa and Mali. In A. Gove & A. P. Wetterberg (Eds.), *The Early Grade Reading Assessment: Applications and interventions to improve basic literacy* (pp. 83-114). RTI Press.
6. West, J., & Kersop, E. (2025). Teachers' perceptions about the implementation of Early Grade Reading Assessment. *Reading & Writing*, 16(1), 1-11.
7. [Gazeta.uz. \(2021, 17 noyabr\). Boshlang'ich sinflarda o'qish va matematika ko'nikmalarini baholash boshlandi. Gazeta.uz.](#)

